



JAMIYATDAGI SALBIY XOLATLARNI OLDINI OLIHDA XOTIN-QIZLARNING O`RNI

Kenjayeva Hurmatoy Qosimovna

Namangan viloyati Chust tumani

5-sonli maktabning boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali muallif: Xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, oilani mustahkamlash, yosh avlodni ijtimoiy muammolariga e`tiborni yanada kuchaytirish, ayollarning ijtimoiy hayotda faol qatnashishilari uchun qulay sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarni og`ishmay amalga oshirish endilikda har qachongidan ham muhim va dolzarb vazifalar xaqida so`z yuritgan*

Kalit so`zlar: *Madaniyat, milliy madaniy meros, nozik xilqat, go`zallik.....*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida bu borada amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, echimini kutayotgan masalalar bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgani biz, ayollarni behad quvontirdi. Yig'ilishda so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlarda, qolaversa Taraqqiyot strategiyasida ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilayotganiga alohida urg'u berildi. Davlatimiz rahbarining “Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi” degan gapini eshitib, yurtimizning barcha onalari singari faxrlandim. O'zbekistondan ayolini e'zozlagan yurtda yashayotganimdan, mehnat qilayotganimdan g'ururlandim. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z salohiyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash borasida yaqin o'tmishda hatto tasavvurimizga sig'dirolmagan ko'lam va darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, bir necha ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga nisbatan bo'lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos xususiyat hisoblanadi. Hadisi shariflarda “Jannat onalar oyog'i ostidadur”, “Avval onangizga, yana onangizga va yana onangizga, so'ngra otangizga yaxshilik qiling”, degan so'zlarida ham ana shu cheksiz ehtirom namoyon bo'lib kelgan. Shu asnoda mustaqil O'zbekistonimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Sharqda azaldan xotin-qizlar va ularning sha'ni muqaddas sanalib, ularga nisbatan alohida hurmat va e'tibor berib kelingan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatimizda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ma'lumki, ayollarga nisbatan o'tgan davrlar davomida davom etib kelayotgan turg'un bo'lib kelgan munosabatlar hozirgi kunga kelib, ozod va erkin jamiyatda yangi mazmun va ma'no kashf etmoqda. Bilamizki,



ayollarning jamiyatdagi holatiga munosabat turli davrlarda davlat siyosatiga qarab o'zgarib kelgan. Zero, xotin-qizlar har qanday jamiyatda ham oilaning asosini tashkil etgan. “Ayollar bir qo'llari bilan beshik tebratsalar, bir qo'llari bilan dunyoni tebratadi”, degan gap bejiz emas. Shu bois, masalaga chuqurroq yondoshadigan bo'lsak, har bir jamiyatning taraqqiyoti, adolatparvarligi va insonparvarligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Tarixga nazar tashlaylik. Ayollarga munosabat ular huquqlarining tarixiy ildizlari qayerga borib taqaladi. Ayol siyosatchi, davlat arbobi, shoira, olim, jamiyatga eng zarur inson. Ko'rib turibmizki, agar biz ko'xna tariximiz sahifalarini varaqlab chiqsak ayollarning jamiyatda tutgan o'rnini yaqqol ko'ramiz. Xatto Buyuk temuriylar saltanatida Amir Temurning suyuqli rafiqasi Bibixonim mamlakat ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan ayol hisoblangan. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi munosabati bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demokratlashtirish jarayonida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning markazida inson turibdi, uning huquqlari va erkinliklari muhofazasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, ayollarning huquqlarini himoya qilish muammosiga davlat alohida e'tibor bilan qaramoqda. Ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy, sosial-iqtisodiy va madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlar hamda yoshlarning ma'naviy va intellektual saviyasini yuksaltirish borasida talaygina ishlar olib borilmokda. Davlatimiz rahbarining har bir nutqlarida qo'yilgan umumdavlat, umumxalq ahamiyatga molik muammolar va vazifalar ichida eng asosiy mavzu bu ayollarning oilada, davlat va jamiyat qurilishida huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgandir. Xotin-qizlar Konstitutsiya bilan berilgan huquqdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etishda salmoqli o'rinni egallab kelyapti. Bugungi kunda ayollar tashkilot, korxonalar va muassasalarning turli yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat bo'lishini hammamiz, orzu qilamiz va butun mehnatimiz, o'y va intilishlarimiz shunga qaratilgan. Shu buyuk kelajak sari qadam qo'yar ekanmiz, hech bir ikkilanmasdan aytishimiz mumkin, buyuk kelajakni buyuk insonlar yaratadi, buyuk insonlarni esa faqat buyuk ayollargina dunyoga keltirib, o'stirib, tarbiyalashi mumkin. Bu o'rinda ayollarimiz sog'lom, o'qimishli va oqila bo'lishlari, qolaversa, ularning ma'naviy, huquqiy bilim darajalari, o'z burch va majburiyatlarini qay darajada his etishlari katta o'rin tutadi. Ayolni bahor fasliga menglaymiz. Bu bejiz emas. Ko'klam o'z tarovati bilan tabiatni yashnatsa, ayol latofati, mehr-muhabbati, sadoqati bilan hayotga zeb beradi. Shu bois, ayolga ehtirom ko'rsatish, opa-singillarimizni ulug'lash va e'zozlash ezgu qadriyat sanaladi. Bugungi kunda bunday ezgu an'analarni nafaqat davom ettirish, balki yangicha ma'no-mazmun bilan boyitishga ulkan e'tibor qaratilayotir. Bir necha yillar avval, aniqrog'i 5-6 yil ilgari Qoraqalpog'istonda ijro tizimida mas'ul lavozimda, xususan aynan xotin-qizlar qo'mitasida mehnat qilgan inson sifatida yaxshi eslayman: oilaviy sharoiti og'ir bo'lgani uchun qo'lida na hunari, na diplomi bo'lgan, turmush tashvishlariga ko'milib, yashashga uy-joyi ham bo'lmagan ishsiz xotin-qizlar qabulimizga yordam so'rab kelardi. Ularning ayrimlariga kasb-hunar o'rganish bo'yicha tavsiyalar bersak, yana boshqalariga bo'sh ish o'rinlaridan ish topishga harakat qilardik. Lekin har qancha istasak ham, ularni kredit yoki subsidiyalar



ajratish orqali uy-joy bilan ta'minlanishiga erisha olmasdik. Buning uchun mablag' topishning iloji bo'lmagan. Hech bo'lmasa, bir yilda bir nafar ayolga yordam bera olmaganimizdan o'zimizni koyirdik, ko'nglimiz ranjirdi. Ammo qo'limizdan hech narsa kelmasdi. Buni qarangki, oradan bir necha yil o'tib Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash hamda xotin-qizlar o'rtasida bandlikka ko'maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiladigan bo'ldi. Natijada, bir yilning o'zida ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' yo'naltirildi. e'tiborlisi, 2022 yilda ipoteka kreditlari bo'yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga cafarbar etilib, uy-joyga muhtoj 14 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga ijara to'lovlari uchun 500 ming so'mgacha kompensatsiya beriladi. Buyuk davlat arbobi Indira Gandi o'z vaqtida “Biz qizni o'qitsangiz, butun millatni, butun jamiyatni, butun oilani o'qitgan bo'lar edingiz” deganida qanchalik haq edi. Oramizda o'qimishli, ziyoli, fahm-farosatli, zukko qizlarimiz qanchalik ko'p bo'lsa, kelajakda ular voyaga etkazadigan zurriyotlar ham bilimli, keng dunyoqarashga ega va yuksak salohiyatli shaxs bo'lib etishadi. Shu bois o'tgan yili oliy ta'lim olish niyatida bo'lgan qizlarga engilliklar yaratilib, 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta'limga qabul qilingani, oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etganidan quvonmaslikning iloji yo'q.

Shu bilan birga, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash borasida oldimizda qiladigan ishlarimiz ko'pligi ham ayni haqiqat. Keyingi vaqtlarda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim oilalarda ham ruhan, ham jismonan jabrlanayotgan yoki yangi tug'ilgan chaqalog'ini ko'cha-ko'yga tashlab ketayotgan xotin-qizlar haqidagi xabarlar qulog'imizga tez-tez chalinib qolayapti. Yoki turmushda uchrab turadigan to'siqlar, muammolarni bartaraf qilishga o'zida kuch, iroda topa olmaganidan oila atalmish muqaddas qo'rg'onni mustahkamlay olmayotgan, osonlikcha ajrashishga shoshilayotganlar, bolasini yirtqich hayvonga tashlayotganlar ham bizga begona emas, o'zimizning opa-singillarimiz. Bunday noxush holatlar, qolaversa oila, xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bois, ham joriy yilning 1 mart kuni “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Farmoniga binoan Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etilgani bu boradagi ishlarni sifat va son jihatidan yangi bosqichga olib chiqishini e'tirof etish joiz. Yangi tashkil etilgan qo'mita raisi ayni paytda Bosh vazir o'rinbosari va Senat a'zosi sifatida faoliyat yuritadi. Qo'mitaning viloyat, tuman va shahar boshqarmalari rahbarlari esa, hokim o'rinbosari hisoblanadi. Respublikada ayni paytdagi 9 309 ta mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilinadi. Mahallalardagi xotin-qizlar faollari ham hokim yordamchilari va yoshlar etakchilari qanday konkurs bilan tanlangan bo'lsa, shunday ochiq konkurs asosida, tajribali, obro'-e'tiborli, tadbirkor ayollar orasidan lavozimga qo'yiladi. Kezi kelganda aytish kerak, yig'ilishda O'zbekiston “Adolat” SDPning Dasturiy g'oyalarida hamisha ustuvor ahamiyat qaratilgan



masala bo'yicha ham vazifalar ilgari surildi. Ya'ni, Prezident tomonidan yaqin istiqbolda davlat boshqaruvida ayollar faolligini oshirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi. Ushbu dastur asosida davlat idoralarida ishlayotgan rahbar ayollar ulushi belgilanadi, har bir vazirlik, davlat kompaniyasi, bank va boshqa idoralar bir-ikki yil ichida o'z tizimidagi ayollarni rahbarlikka o'qitib, kamida 1 nafar o'rinbosarini ham ayollardan tayinlanadi. Kezi kelganda aytish kerak, bugungi kunda parlament quyi palatasi deputatlarining tarkibida ayol deputatlar soni 48 nafarni tashkil etadi. Parlamentda doimiy asosda Oila va ayollar muammolari komissiyasi faoliyat yuritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilov N. Xizir chashmasi. T. 2005, «Manaviyat» nashriyoti.
2. Komilov N. Tasavvuf. T. 2009, «Mavoraunnahr» nashriyoti.
3. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. T. 2007, «Fan» nashriyoti.